

UDK: 316.752

**YANGILANAYOTGAN O'ZBEKISTONDA TALABALARDA MILLIY
QADRIYATLAR TARIXINI O'RGATISH METODIKASINI
TAKOMILLASHTIRISHNING DIDAKTIK IMKONIYATLARI**

Andayeva Shaxnoz Sanaqulovna

TMC instituti, "Tillar va ijtimoiy-gumanitar fanlar" kafedrası mudiri

Tarix fanlari doktori(DSc), dotsent

shahnoza7448@gmail.com, +998909307448

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekistonning yangilanish davrida talabalarda milliy qadriyatlar tarixini o'rganishga bo'lgan ehtiyojning ortib borayotgani, bu borada ta'lim jarayonida qo'llanilayotgan metodikalarning samaradorligini oshirish zarurati, shuningdek, milliy qadriyatlarni chuqur anglash orqali yoshlar qalbida vatanparvarlik, g'urur va o'zlikni anglash hissini shakllantirishda didaktik imkoniyatlardan foydalanish yo'llari yoritilgan.

Kalit so'zlar: milliy qadriyatlar, didaktika, tarixiy ong, metodika, talaba, vatanparvarlik, yangilanish, tarbiya.

**ДИДАКТИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ
МЕТОДИКИ ПРЕПОДАВАНИЯ ИСТОРИИ НАЦИОНАЛЬНЫХ
ЦЕННОСТЕЙ УЧАЩИМСЯ В ОБНОВЛЯЮЩЕМСЯ УЗБЕКИСТАНЕ**

Андаева Шахноз Санакуловна

Заведующий кафедрой "Языки и социально-гуманитарные науки"

института ТМС

Доктор исторических наук (DSc), доцент

shahnoza7448@gmail.com, +998909307448

Аннотация: в данной статье рассматривается растущая потребность в изучении студентами истории национальных ценностей в период обновления Узбекистана, необходимость повышения эффективности методик, используемых в образовательном процессе в этой связи, а также пути использования дидактических возможностей для формирования в сердцах молодых людей чувства патриотизма, гордости и самосознания через глубокое понимание национальных ценностей.

Ключевые слова: национальные ценности, дидактика, историческое сознание, методика, ученик, патриотизм, обновление, образование.

**DIDACTIC POSSIBILITIES OF IMPROVING THE METHODOLOGY OF
TEACHING THE HISTORY OF NATIONAL VALUES TO STUDENTS IN
RENEWING UZBEKISTAN**

Andayeva Shakhnoz Sanakulovna

*Head of the Department of "Languages and Social-Humanitarian Sciences" at the
TMC Institute*

Doctor of Historical Sciences (DSc), Associate Professor
shahnoza7448@gmail.com, +998909307448

Annotation: *this article discusses the growing need for students to study the history of national values during the period of renewal of Uzbekistan, the need to increase the effectiveness of the methodologies used in the educational process in this regard, as well as ways to use didactic opportunities to form a sense of patriotism, pride and self-awareness in the hearts of young people through a deep understanding of national values.*

Keywords: *national values, didactics, historical consciousness, methodology, student, patriotism, renewal, education.*

KIRISH

Bugungi kunda O'zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida, jamiyatda ma'naviy tiklanish jarayonlari chuqurlashar ekan, yosh avlodda milliy qadriyatlarni anglash, ularni qadrlash va amaliy hayotda qo'llay bilish ko'nikmalarini shakllantirish dolzarb vazifalardan biriga aylangan. Talabalarda milliy qadriyatlar tarixini o'rgatish nafaqat ularning intellektual salohiyatini oshiradi, balki ularni vatanparvar, ongli va mustaqil fikrlovchi shaxs sifatida shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Oliygo'ha tolibi ilimlarining milliy qadriyatlar asosida rivojlantirish metodlari milliy qadriyatlar tarixini rivojlanishi holatlarining a'lo darajadagi kechishini belgilab beradigan, o'quv jarayonlarini ko'nikma va malakalari yuqori bulgan o'qituvchilar, zamon talablariga javob beradigan o'quv xujjatlar va adabiyotlar bilan tuldirib borish, ta'lim- tarbiya, ilm-fan va amaliyot o'rtasida foydali aloqalarni o'rnatish maqsadga muvofiqdir.

Oliygo'ha talabalarining qonunbuzarliklari va jinoyatchiligini bartaraf etishda oilaning rolini oshirish va shu maqsadda oila institutining ta'lim va tarbiya tashkilotlari bilan o'zaro uzviy aloqalarini mustahkamlash, ularning foydali munosabatlarini ta'minlashga alohida e'tibor berish kerak. Buning uchun avvalo, respublikamizda jinoyatchilik va qonunbuzarlikka moyil yoki uni amalga oshirgan voyaga yetmaganlar (delikvent xulqli), tarbiyasi og'ir, balog'at yoshidagi (adektiv xulqli)lar bilan shug'ullanish, ularni qayta tarbiyalash mexanizmini samarali tashkil etish kerak.

Talabalarni yuksak ma'naviy ahloqiy ruhda tarbiyalash, ularda ma'naviy jasorat tuyg'ularini rivojlantirish turli savodxonligini-ma'naviy tahdidlardan himoya

qilishning muhim omilidir. Xozirgi glaballashuv sharoitida fuqarolarning keng qatlami ya'ni ayniqsa yoshlarimizda milliylikka sodiqlik, vatanparvarlik tuyg'usini, yuksak ma'naviy-ahloqiy qarashlarni tarbiyalashning, ularda ma'naviy-savodxonligini immunitetni rivojlantirishning dolzaribligi yanada oshmoqda. Chunki jahonda axbarot xurji, ommaviy madaniyat niqobi ostida ma'naviy-savodxonligini tahdidlar tobora kuchaymoqda. Shunday ekan mamlakatimizda yoshlarga qaratilgan shunday ma'naviy xurjlardan asrab avaylash uchun ham yoshlarning fuqarolik bilimlarini oshirish davr taqozosidir.

Dunyoda shunday ma'naviy tahdidlar xavfi ortib borayotgan bir vaqtda mustaqil va sog'lom fikirlaydigan, ajdodlarga yuksak hurmat ruhida ularga munosib bo'lishga intiladigan avlodni tarbiyalash respublikamizda davlat siyosati darajasiga olib chiqilgan ekan, bu jarayonda faol ishtirok etish har bir fuqaroning muqaddas burchidir.

Yoshlar ma'naviyatini yuksaltirishda eng muhim omillardan yana biri – tarixiy xotira – ajdodlarga yuksak hurmat va ehtirom ifodasi bo'lib, o'tganlar xotirasini yodda saqlagan holda, e'zozlab yashash demakdir. O'zbekistonda keyingi besh yillikda amalga oshiriladigan isloxotlarning zarur siyosiy, ijtimoiy, iktisodiy va ma'naviy asoslarini yaratib berishga karatilgan Yangi O'zbekistonning 2022-2026 yillarga mo'ljallangan tarakkiyot strategiyasini 73-maqsadida "Buyuk ajdodlarimizning boy ilmiy merosini chuqur o'rganish va keng targ'ib etish"deb alohida takidlangan. Yoshlarni shunday an'ana ruhida tarbiyalash, Vatanimiz tarixi bilan qurollantirish ma'naviyat va milliy mafkurani rivojlantirish sohasidagi kechiktirib bo'lmas vazifa ekanligi barchamizga birdek ayon.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Xozirgi kunda yoshlarimizning mustaqil fikrlashi, ma'naviy olami, ijtimoiy faolligi o'sib borayotgani barcha yutuqlar poydevoriga, kuch-qudrat manbaiga aylanganligini, ayniqsa yurtimizda amalga oshirilayotgan ulkan bunyodkorlik ishlari, erishilayotgan yutuqlarning negizida inson omili hal qiluvchi rol o'ynayotganini kuzatish mumkin. Ma'naviy meros, milliy qadriyatlarning tiklanishi, sog'lom avlodni har tomonlama yetuk, ma'nan yuksak, komil inson qilib tarbiyalash davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Asrlar davomida shakllanib kelayotgan milliy

davlatchilik asoslari milliy o'zlikni anglash tamoyili bilan tobora mustahkamlanmoqda. Milliy-ma'naviy yangilanish, qadriyatlar qayta tiklanishi, iqtisodiy yuksalish taraqqiyot omiliga aylandi. Yoshlarning xozirgi kundalik turmushda turli xavfli vaziyatlar va tahdidlarda el-yurt, vatan manfaatlari uchun ixtiyoriy, ongli ravishda o'z hayotini xavf ostiga qo'yib bo'lsada, halokatni olish uchun o'zni safarbar etish jasorat tushunchasining mazmunini ifodalaydi. Ma'naviy jasorat moddiy yoki ma'naviy manfaatdorlik evaziga amalga oshirilmayda balki u insonning, balki u insonning, o'z hayotini maqsad va orzu-umidlarini xalq va jamiyat uchun bag'ishlab, amalga oshirgan ezgu faoliyatini ham ifodalaydi. Ma'naviy jasorat ba'zi insonlar va alohida shaxslarning dunyoqarashigina emas, balki har bir fuqaro, jumladan yosh avlod uchun ham kerakli bo'lgan ma'naviy fazilatdir. Hozirgi murakkab tahlikali sharoitda yosh avlod tarbiyasiga alohida e'tibor qaratilayotganligi yoshlar uchun yaratib berilayotgan imkoniyatlardan unumli foydalanish kerak, zero kelajak yoshlar qo'lida ekanligini hech qachon unutmasliklari, bizgacha asrab avaylab yetib kelgan milliy, ma'naviy me'roslarimizni bizdan keyingi avlodlarga yetkazishlari lozimligini yana bir bor unutmaslik kerak.

Shu asnoda tolibi ilimlarning ijodiy qobiliyatlarni oshirish jarayonini amalga oshirishda o'zining samaradorligini asoslagan ratsional metodik usullarni o'rganib chiqish natijasida oliy ta'limni insoniylashtirish negizida qaraladigan uslublar ijodiy imkoniyatlarni ko'tarish jarayonida umumbashariy va milliy qadriyatlardan foydalanishni anglatadi. Qadriyatlarimizni asl mazmun-mohiyati oliy ta'lim muassasalarida tolibi ilimlarning ijodiy qobiliyat va imkoniyatlarini oshirish bo'lib, u umumbashariy qadriyatlarga tayanuvchi ma'naviyati yuqori bo'lgan odamni tarbiyalashga yo'naltirilgan

Qadriyatlarga tayanish muallim va talaba yoshdarning nafaqat suhbat doirasida, balki hamkorlik aloqalarida ham uchraydi va bunda shaxsning ta'limi va tarbiyasi komillikka erishishdagi ustuvor bo'lgan pedagogik qadriyatlarning aksiologik qarashlarini tadbiq etish tajribada, kundalik ijtimoiy hayotda namoyon bo'ladi. Masalan: burch hissi, mas'uliyat, mehnatsevarlik kabi qadriyatlarning ustunligi o'qituvchilar va talabalar jamoasiga hamkorlikdagi ishlariga yordam

beradi. Tahsil oluvchilarning kasbiy qobiliyatlari va kasbiy-texnologik kompetentlikni oshirishga qaratilgan tajriba sinov ishlaridan foydalanish to'g'ri yo'ldir.

Aqlga tayanuvchi usullardan biri ta'limning mazmunini va uslublarining talabalarga, uning hayotiy va kasbiy qiziqishlari hamda ehtiyojlariga, uning hissiyotlari va shaxsiy hayotiy tajribasiga yo'naltirilganligi hisoblanadi. Uning mohiyati o'qituvchi nafaqat ma'lumotni bayon etishi kerakligi, balki mazkur bilimlar sohasiga qiziqishni uyg'otishni bilishi, shu tariqa ta'lim oluvchi bilan hamkorlikda ishlash metodini topishi kerakligidan iborat. Uni qo'llashdan maqsad pedagogik oliy ta'lim muassasasidagi ta'lim, tarbiya mazmuni va metodlarini insonparvarlashtirish hisoblanadi.

Faol, ijodiy mutaxassisni tarbiyalash uchun faol, ijodiy o'qitish jarayonini tashkil etish zarur. Oliygo'ra talabalarning g ijodiy bilishga oid jarayonlarini ilmiy asoslash bilishga bog'liq intilishlari va yangi ilimni egallashning maxsus mexanizmlarisiz kutgan maqsadni amalga oshirish qiyin. Ehtiyojlar va motivlar toifasi qiziqish bilan bevosita bog'liq, bu esa insoning emotsional sohasidan ayrilmasdir. "Bilishga oid qiziqishning psixologik tuzilishi inson emotsional-irodaviy va fikrlash jarayonlarining o'ziga xos qorishmasini ifodalaydi" [1]. Bunda bilish jarayonining irodaviy va intellektual tomonlari alohida qismlarni emas, balki uning yaxlitligini tashkil etadi. Oxirgi o'n yillikdagi psixologik va pedagogik manbalarda bilish jarayonida xissiy va aqliy tomonlarning ajralmas birligi bo'lgan umumiylikning o'qitishda qo'llanilishi, to'g'risidagi qarashlar ifodalanadi.

Respublikamizda bugungi kunda maktabgacha ta'lim-tarbiya tizimini tubdan isloh qilishga alohida e'tibor qaratilib, farzandlarimizning jahon andozalari darajasida zamonaviy bilim, kasb-hunarlarni egallashi, ma'nan-axloqan, jismonan yetuk insonlar bo'lib ulg'ayishi, yosh avlod qalbida Vatanga sadoqat, fidoyilik tuyg'ularini yuksaltirish borasida O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida "Jismonan sog'lom, ruhan va aqlan rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, Vatanga sodiq, qat'iy hayotiy nuqtai nazarga ega bolalarni tarbiyalash" ustuvor vazifa etib belgilangan. Mana shu ustuvor vazifalarni amalga oshirishda mamlakatimizda maktabgacha ta'limni yanada rivojlantirish, uning

samarali faoliyat ko'rsatishini ta'minlashga qaratilgan muhim meyoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilind. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Insoniyat yaratgan bebaho madaniyat durdonalari eng avvalo har qaysi millatning folklor san'atida mujassam topgani hammamizga yaxshi ma'lum. ... Folklor san'ati, ta'bir joiz bo'lsa, bu – insoniyatning bolalik qo'shig'idir".

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Mamlakatimizda ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini takomillashtirishga hamma vaqt ustuvor yo'nalish sifatida e'tibor qaratib kelinmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-5040-son 2021 yil 26 martdagi "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorida "El-yurt taqdiriga loqaydlik, mahalliychilik, urug'-aymoqchilik, korrupsiya, oilaviy qadriyatlarga bepisandlik va yoshlar tarbiyasiga mas'uliyatsizlik kabi illatlarga barham berishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish; aholining Internet jahon axborot tarmog'idan foydalanish madaniyatini oshirish, fuqarolik va axborot xurujlariga qarshi savodxonligini immunitetini kuchaytirish; madaniyat, adabiyot, kino, teatr, musiqa va san'atning barcha turlari, noshirlik-matbaa mahsulotlari, ommaviy axborot vositalarida ma'naviy-axloqiy mezonlar, milliy va umuminsoniy qadriyatlarning ustuvorligiga erishish; geosiyosiy va savodxonligini jarayonlarni muntazam o'rganish, terrorizm, ekstremizm, aqidaparastlik, odam savdosi, narkobiznes va boshqa xatarli tahdidlarga qarshi samarali fuqarolik kurash olib borish hamda bu borada xalqaro hamkorlik aloqalarini rivojlantirish" ma'naviy sohani tubdan rivojlantirishning muhim tomonlari etib belgilandi.

Qadriyatlarda inson hozirda shu ondagi obrazi emas, balki u ma'naviy qonunlar jihatidan qanday bo'lishi kerakligi aks etadi Milliy qadriyatlar tarixinirivojlantirishning motivatsion-qadriyatli komponentini hosil qiluvchi qadriyatlar, ta'lim oluvchilarni tarbiyalash vazifasini bajaradi. "axloqni subyektiv ravishda motiv sifatida qaralganida, axloqqa undash emas, balki axloqning o'zi mavjuddir" [2].Yosh avlodni vatanparvarlik, odamiylik, o'z vataniga sadoqatli insoniy tuyg'ular bilan birga tollerantlik, madaniyatli hamda boshqa millat vakillariga hurmat qiladigan, insoniy qadriyatlarga ega qilib tarbiyalashda uch muhim omil oila, mahalla va ta'lim muassasalari o'rtasidagi aloqadorlik muhim

ahamiyat kasb etadi. Bunday samarali hamkorlikni yo'lga qo'yish yoshlar orasida turli illatlarning oldini olishda, bugungi kunning ma'naviy jihatdan yetuk yoshlarini tarbiyalashda hal qiluvchi vosita hisoblanadi. Insonlar faol faoliyatdagi hatti-harakatlarga e'tibor bermay qo'ysalar, bu mohiyati faoliyat bilan cheklanadigan amallarning miqdori ortadi. Bu odamni tarbiyalash uchun salbiy jixatini keltirib chiqaradi. Oliy bilim yurti rektori va o'qituvchilar guruhi tomonidan axloqiy tamoyillarga asoslanadi: "Bizning prinsipimiz bolani bilmasligini aniqlash emas. O'qitishning asosiy maqsadi – bola bilishga intilishiga erishishdir".

O'quv-tarbiya ishiga bunday yondashuvning talqini ilmiy jihatdan haqlidir. V.A.Suxomlinskiyning ta'kidlashicha: "Agar bola o'qituvchi uning ikki bahosi to'g'risida ota-onalari bilishlarini va qat'iy qarorlar qabul qilishlarini istayotganligini sezganida, u o'qituvchi va oliygohga qarshi g'azablanadi, ta'lim olish u uchun og'ir bo'ladi. Bundan his-tuyg'ularning kuchayishi, achchiqlanish yuzaga kelib, ko'pincha uning atrofdagilar bilan munosabatlariga ta'sir ko'rsatadi. Ko'p sonli jarohatlar oxir-oqibatda shifo topadi, ammo emotsional befarqlikka olib keladi. Bolalar o'ziga nisbatan befarq yoki adolatsiz munosabatni his qilib, yaxshilik va yomonlikka nisbatan sezgirlikni yo'qotadilar" [3]. Ushbu g'oya ijtimoiy voqelikdan va fuqarolik jamiyat haqidagi ilmiy qarashlardan kelib chiqadi. Fuqarolik jamiyatida insonning gorizontal aloqalar va munosabatlarga jalb etilganligi uni de jure fuqarodan de facto fuqaroga aylantiradi. Ammo savol yuzaga keladi: "Jamiyatni birlashtiruvchi va insonlarni umumlashtiruvchi jarayon amalga oshadigan qadriyatlar qaysilar?". I.I. Kalina bunday qadriyatlar sifatida sodiqlik, yaxshilik, saxovatlik, burch, sharaf, mehr-sahovat, mas'uliyatlik, foyda, haqiqat, mustaqillik, erkinlik, adolat, baxt, qadr-qimmat qadriyatlarini ajratgan [4]. Bu qadriyatlar, olimning ta'kidlashicha, V.A.Yadov ifodalagan, insonlar o'rtasidagi o'zaro aloqalarni qayd etish, insonning shaxs sifatlariga munosabat kabi talablarga javob beradi. Bunday qadriyatlar dolzarb hisoblanadi, me'yor mavqeiga ega va inson xulqini prognozlashga imkon beradi. Bunda I.I. Kalina mazkur qadriyatlar nima uchun me'yor mavqeiga egaligi bo'yicha tushuntirishni amalga oshirgan. Bunday tushuntirishlarning mohiyati, qadriyatlar qadriyatli munosabatning "qutb"laridan biri hisoblanib, insonning

xususiyatlari va sifatlari ifodalanadigan, qadriyatli munosabat “doim me’yor bilan bog’liq bo’lgan”.

XULOSA

Milliy qadriyatlar tarixinirivojlantirishning motivatsion-qadriyatli komponenti mazmunini hosil qiluvchi qadriyatlar, “odam – odam”, “odam – jamoa”, “jamoat – odam” tartibida joriy etilib hamda, odam va jamoa, jamoa va odamlar orasida, insoniylik sifatlarini namoyon etadi. Mazkur qadriyatlar jamiyat va alohida inson – talaba, oliygo’ra o’qituvchisi, o’zgaruvchan dunyoda birgalikdagi hayotga intiluvchi ixtiyoriy boshqa inson uchun dolzarb ahamiyatga egadir. Ushbu qadriyatlar tartibi bilim yurti yoshlarini fuqarolik holatlarini rag’batlantiruvchi kuchga aylanib, uni tizimlashtiradi, uni komil inson, fuqarolik nuqtaiy nazaridan ulug’lanishiga olib keladi. Mazkur qadriyatlar shuningdek me’yor mavqeiga egadir. Qadriyatlar kelajak obrazi, andozasini hosil qilib, hozirgi zamonga asoslangan kelajakni aks ettiradi. Hozirgi zamon – talabalarni tayyor holda qabul qiluvchi sharoitlardir. Bizning vazifamiz, mazkur sharoitlar, V.N.Sagatovskiy ta’kidlaganidek, qadriyatlarga asoslanishi, qadriyatlar esa mazkur sharoitlarda amalga oshirilishidan iboratdir.

ADABIYOTLAR RO’YXATI

1. Abdurahmonov A. Qadriyat – ma’naviy merosdir. – Toshkent: Ma’rifat gulshani, 2007. – B. 7.
2. Asqar Zununov. Pedagogika nazariyasi. – T.: Aloqachi, 2001. – B. 163.
3. Asqar Zununov. Ulfat Maxkamov. Didaktika (Ta’lim nazariyasi). – T.: Sharq nashriyoti, 2006. – B. 101.
4. Zaripov M.Z. Ma’naviy qadriyatlar va milliy o’zlikni anglashning rivojlanishi. – T.: Pedagogik ta’lim, 2000. – B. 9.
5. Yo’ldoshev J.G’. Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari. – T.: O’qituvchi, 2004. – B. 95.